

Kema



12:05 / 05.01.2020 2885

18

Alloh, Nuhning duosini qabul qildi va uning qavmini g'arq qilishni xohladi. Alloh u bilan Nuh va mo'minlarga najot berishni xohladi. Nuhga, katta kema yasashni buyurdi. Nuh, katta kema yasashni boshladi. Qavmi, uni shu ishda ko'rib, uning ustidan kulishga mashg'ulot topib oldilar.

Ular: Ey Nuh, bu nima? Qachondan beri duradgor bo'lib qolding? Biz senga mana bu pastkashlar bilan o'tirmagin demaganmidik? Lekin sen bizning so'zimizni eshitmading va duradgorlar, temirchilar bilan o'tirib, duradgorga aylanding!

Ey Nuh bu kema qaerda yuradi? Seni barcha ishlaring ajablanarli. Bu qumda yuradimi? Yoki tog'ga ko'tariladimi? Dengiz bu yerdan juda uzoqda-ku? Uni jinlar ko'taradimi yoki ho'kizlar tortadimi?" deyishar edi. Nuh bularning barchasini eshitar va sabr qilar edi. Bundan qattig'ini ham eshitib sabr qilgan edi. Lekin ularga ba'zida: «**Agar bizni masxara qilsangiz, biz ham xuddi siz bizni masxara qilganingizdek sizlarni masxara qilamiz**», (*Hud surasi, 38-oyat*) der edi